e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/pey44f36

UCHTEPA-2 ARXEOLOGIK YODGORLIGINING QUYI QATLAMIDA UCHRATILGAN OCHIQ VA YOPIQ TURDAGI BA'ZI IDISHLARNING TIPOLOGIYASI VA QIYOSIY TAHLILI

To'xtasinov Dilshod Inomjon o'g'li
Askarov Kahramon Kirgizovich

Namangan davlat universiteti, kafedra mudiri.
Namangan davlat universiteti, katta o'qituvchi.
e-mail: dilshodtoxtasinov2202@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Uchtepa–Buloqmozor majmuasiga kiruvchi Uchtepa-2 arxeologik yodgorligining quyi stratigrafik qatlamidan aniqlangan kulolchilik buyumlari, xususan, ochiq (piyola) va yopiq (kosa) turdagi idishlarning tipologiyasi hamda qiyosiy tahlili yoritilgan. Tadqiqotlar natijasida yodgorlik uchta madaniy qatlamdan iborat ekanligi aniqlanib, eng quyi qatlam sopollari asosida hududning miloddan avvalgi III–II asrlardan boshlab o'zlashtirilgani ilmiy jihatdan asoslangan. Maqolada sopol buyumlarning shakliy xususiyatlari, texnologik ishlov berish darajasi, angob berish usullari va xomashyo tarkibi tahlil qilingan. Shuningdek, aniqlangan idishlarning Farg'ona vodiysidagi boshqa arxeologik yodgorliklar (Mingtepa, Axsikent, Eylaton, Kuyultepa va boshqalar) materiallari bilan tipologik o'xshashliklari qiyosiy jihatdan ko'rsatilib, ularning madaniy-xronologik o'rni belgilangan. Tadqiqot natijalari hududda antik davr kulolchilik an'analari va ishlab chiqarish texnologiyalarining rivojlanish bosqichlarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Uchtepa-2, arxeologik yodgorlik, stratigrafiya, kulolchilik mahsulotlari, kosa, yopiq turdagi idishlar, loy, Axsikent, Mingtepa, Eylaton.

ТИПОЛОГИЯ И СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ СОСУДОВ ОТКРЫТОГО И ЗАКРЫТОГО ТИПОВ, ОБНАРУЖЕННЫХ В НИЖНЕМ СЛОЕ АРХЕОЛОГИЧЕСКОГО ПАМЯТНИКА УЧТЕПА-2

Тухтасинов Дилшод Иномжон угли
Аскаров Кахрамон Киргизович

Наманганский государственный университет, заведующий кафедрой.
Наманганский государственный университет, старший преподаватель.

Аннотация.

В статье рассматриваются типология и сравнительный анализ керамических изделий, обнаруженных в нижнем стратиграфическом слое археологического памятника Учтепа-2, входящего в комплекс Учтепа–Булокмозор. Особое внимание уделяется сосудам открытого (пиалы) и закрытого (чаши) типов. В результате исследований установлено, что памятник состоит из трёх культурных слоёв. На основании анализа керамических материалов самого нижнего слоя научно обосновано освоение данной территории начиная с III–II веков до н. э. В статье анализируются морфологические особенности керамических изделий, уровень технологической обработки, способы нанесения ангоба и состав сырья. Кроме того, выявляются типологические сходства обнаруженных сосудов с материалами других археологических памятников Ферганской долины (Мингтепа, Ахсикент, Эйлатон, Куюлтепа и др.), определяется их культурно-хронологическое положение. Результаты исследования имеют важное научное значение для установления этапов развития гончарных традиций и технологий керамического производства в регионе в античный период.

Ключевые слова: Учтепа-2, археологический памятник, стратиграфия, керамические изделия, чаша, сосуды закрытого типа, глина, Ахсикент, Мингтепа, Эйлатон.

TYPOLOGY AND COMPARATIVE ANALYSIS OF SELECTED OPEN- AND CLOSED-TYPE VESSELS DISCOVERED IN THE LOWER LAYER OF THE UCHTEPA-2 ARCHAEOLOGICAL SITE

To'xtasinov Dilshod Inomjon o'g'li
Askarov Kahramon Kirgizovich

Namangan State University, Head of Department.
Namangan State University, Senior Lecturer.

Abstract.

ISSN 3060-5059 (Online)

This article examines the typology and comparative characteristics of pottery discovered in the lower stratigraphic layer of the Uchtepa-2 archaeological site, which forms part of the Uchtepa–Buloqmozor complex. Particular attention is given to open-type vessels (bowls) and closed-type vessels. Archaeological investigations have established that the site consists of three cultural layers. Based on ceramic materials from the lowest layer, the study provides scientific evidence that the area had been occupied since the third–second centuries BCE. The article analyzes the morphological characteristics of ceramic artifacts, their technological processing, methods of applying slip coatings, and the composition of raw materials. Furthermore, typological similarities are identified between the discovered vessels and ceramic materials from other archaeological sites in the Fergana Valley, including Mingtepa, Axsikent, Eylaton, Kuyultepa, and others, allowing their cultural and chronological attribution to be established. The findings are of considerable scientific importance for identifying the developmental stages of ancient pottery traditions and ceramic production technologies in the region.

Keywords: Uchtepa-2, archaeological site, stratigraphy, ceramic artifacts, bowl, closed-type vessels, clay, Axsikent, Mingtepa, Eylaton.

Kirish. Markaziy Osiyo hududi qadimdan rivojlangan kulolchilik an'analari bilan ajralib turadi. Arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, har qanday qadimgi manzilgoh – u shahar, qishloq yoki qo'rg'on bo'lishidan qat'i nazar – eng avvalo, sopol buyumlar majmuasi orqali o'rganiladi. Sopol idishlar nafaqat moddiy madaniyat namunasi, balki jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish darajasini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Ayniqsa, kulolchilik mahsulotlarining texnologik xususiyatlari, shakl va bezaklari orqali muayyan tarixiy davrlar va madaniy jarayonlarni aniqlash imkoniyati mavjud.

Antik davrda, xususan, yunon-makedon yurishlaridan so'ng O'rta Osiyo hududida kulolchilik ishlab chiqarishida sezilarli o'zgarishlar yuz bergan. Bu jarayon yangi shakl va turdagi idishlarning paydo bo'lishi, ishlab chiqarish texnologiyasining takomillashuvi hamda hududiy kulolchilik markazlarining shakllanishi bilan tavsiflanadi. Mazkur jarayonlarning izlari Farg'ona vodiysidagi arxeologik yodgorliklar, jumladan, Uchtepa-2 yodgorligi materiallarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Uchtepa-2 arxeologik yodgorligi Namangan viloyatining Norin tumanida joylashgan bo'lib, stratigrafik jihatdan uchta madaniy qatlamdan iborat ekanligi aniqlangan. Yodgorlikning eng quyi qatlamlari ilk antik davrga oid bo'lib, hududning miloddan avvalgi III–II asrlarda o'zlashtirilganligini ko'rsatadi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi aynan shu quyi qatlamdan aniqlangan ochiq va yopiq turdagi sopol idishlarni tipologik jihatdan tasniflash hamda ularni Farg'ona vodiysidagi boshqa yodgorliklar materiallari bilan qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Uchtepa-2 yodgorligidan topilgan kulolchilik buyumlarini o'rganishda Farg'ona vodiysi va unga tutash hududlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, S. S. Kudratov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Norin daryosi chap sohilidagi manzilgohlar keramikasi keng qamrovda o'rganilib, ularning xronologik va tipologik xususiyatlari tahlil qilingan. Ushbu ishlar Uchtepa-2 sopollarini davrlashtirish va analogiyalarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

B. X. Matboboyev, Chen Ling, M. X. Isamiddinov va boshqalar tomonidan Mingtepa yodgorligida olib borilgan qazishmalar natijalari Farg'ona vodiysi antik davr kulolchilik an'analarini o'rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotlarda aniqlangan sopol buyumlar shakli, angob berish usuli va texnologiyasi jihatidan Uchtepa-2 materiallari bilan yaqin o'xshashliklarga ega.

Shuningdek, M. X. Isamiddinov, B. X. Matboboyev va T. Kuchkarov tomonidan Kuyultepa yodgorligi keramikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu ishlarda sopol buyumlarning tipologiyasi va ishlab chiqarish texnologiyasi tahlil qilinib, hududiy kulolchilik an'analarining o'ziga xos jihatlari ochib berilgan.

Sultonobod, Simtepa, Axsikent kabi yodgorliklarda olib borilgan tadqiqotlar (B. Abdulgaziyeva, N. G. Gorbunova, V. I. Kozenkova, A. A. Anarbayev va boshqalar) ham Farg'ona vodiysi kulolchilik maktabining rivojlanish bosqichlarini aniqlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu yodgorliklardan topilgan sopol buyumlar Uchtepa-2 materiallari bilan tipologik va texnologik jihatdan qiyoslash imkonini beradi.

Bundan tashqari, Marg'ilon vohasi va Janubiy Farg'ona hududidagi Sarvontepa, Qizlartepa hamda Karkidon guruhi yodgorliklari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar hududiy madaniy aloqalar va kulolchilik an'analarining tarqalish arealini aniqlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy tadqiqotlar Uchtepa-2 yodgorligi sopollarini kengroq mintaqaviy kontekstda o'rganish, ularning xronologiyasi va madaniy mansubligini aniqlashda muhim nazariy va metodologik asos yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Uchtepa-2" obyektining kulolchilik mahsulotlari

Tadqiqot olib borilgan Uchtepa-2 arxeologik yodgorligi Namangan viloyati Norin tumanidagi Uchtepa qishlog'ida, Namangan–Haqqulobod avtomagistral yo'lining chap tomonida, dengiz sathidan 419 metr balandlikda joylashgan. Yodgorlik joylashgan hudud Farg'ona vodiysining shimoli-sharqiy qismi, aniqrog'i, ikki daryo – Norin va Qoradaryo oralig'idagi hudud hisoblanib, o'rta asrlarga oid yozma manbalarda Miyon Rudon deb nomlanadi [1].

Ushbu yodgorlikda 2019–2021-yillarda akademik A. Asqarov boshchiligida o'tkazilgan tadqiqotlar jarayonida

ISSN 3060-5059 (Online)

yodgorlikning yuqori qatlamidan to quyi qatlamlarigacha stratigrafik va planigrafik qazishma ishlari amalga oshirildi. Qazishma jarayonlarida yodgorlik uchta stratigrafik qatlamdan iborat ekanligi aniqlandi.

Yodgorlikning birinchi, eng quyi qatlamlarida ilk antik davrga oid sopollar mavjud bo‘lib, fikrimizcha, bu ushbu hududning miloddan avvalgi III–II asrlardayoq o‘zlashtirilganligidan dalolat beradi.

Ikkinchi – o‘rta madaniy qatlam so‘nggi antik davrga tegishli ekanligi aniqlanib, ushbu qatlamda uchratilgan sopol buyumlar orasida qoramtir, qisman qizg‘ish va jigarrang angobli turli xil idish siniqlari ko‘pchilikni tashkil etadi. Ularning devorlari ilk antik davr keramikasiga nisbatan qalinroq bo‘lib, shakllarida ham dag‘allashish elementlari uchraydi.

Uchinchi – yuqori madaniy qatlamda uchratilgan kulolchilik mahsulotlari antik davr sopollaridan keskin farq qiladi. Ular, asosan, qo‘lda yasalgan qo‘pol sopol buyumlardir. Sopollar sifatining dag‘allashishi bu zaminga Sirdaryoning shimoli-sharqidan kirib kelgan turkiyzabon ko‘chmanchi chorvadorlarning ta’siri bo‘lsa kerak.

Haqiqatan ham, miloddan avvalgi III–II asrlardan boshlab asta-sekin bu zaminga turkiy tilli xun qabilalari kirib kela boshlaydi. Toshkent vohasi, umuman, Sirdaryoning o‘rta havzasida o‘zbek xalqining o‘troqlashgan asosini tashkil etgan Qovunchi madaniyati va qangarlar shakllanadi [2].

Quyi qatlam sopol idishlarining tipologiyasi va qiyosiy tahlili

Uchtepa-2 yodgorligining quyi qatlamlaridan topilgan kulolchilik mahsulotlari ichida og‘zi keng ochiq, shakli konussimon piyola va kosalar parchalari ko‘pchilikni tashkil etadi. Ular, asosan, kulolchilik charxida juda nafis qilib ishlangan. Idishlar ichki va tashqi tomondan silliqlanib, asosan, qizg‘ish, qisman och va to‘q jigarrang angob bilan qoplangan. Loyi yaxshi qorilgan, singan qirralari juda o‘tkir, sopolni qo‘l bilan chertganda jarangdor ovoz eshitiladi. Loyi tarkibida luxning kuydirilgan oppoq kuli va ba’zilarida ohak moddasi izlari uchraydi. Ushbu turga kiruvchi ba’zi idishlarni tavsiflashni joiz deb hisoblayman.

Ochiq turdagi piyolalar. Uchtepa-2 arxeologik yodgorligining quyi qatlamlari sopollar majmuasida o‘ziga xos miniatyur (kichik hajmdagi) idishlar aniqlangan bo‘lib, ulardan, asosan, dorivor suyuq moddalarni saqlashda foydalanilgan. Idishning ichki va tashqi qismlariga och qizg‘ish angob berilgan, biroq ichki tomoni olov ta’sirida qoramtir tus olgan. Bu holatni ikki xil izohlash mumkin. Birinchidan, idish maxsus kichik hajmdagi pilta chiroq vazifasini o‘tagan, ikkinchidan, idishda olov ta’sirida eritilgan dorivor modda saqlangan bo‘lishi mumkin. Yana bir jihati shundaki, idishning ikki tomoni ham sifatli qilib silliqlangan (1-rasm, 1). Bu turdagi miniatyur idishlarning analogiyalari, asosan, Eylaton, Kuyuktepa va Mingtepa sopollar majmuasida uchraydi [3].

Uchtepa-2 arxeologik yodgorligi sopollar majmuasidagi keyingi sopol parchasining gardish diametri 8 sm, saqlangan balandligi 3 sm, devorining qalinligi 0,5 sm ni tashkil qiladi. Idish kulolchilik charxida mahorat bilan ishlangan bo‘lib, ichki va tashqi tomondan qizg‘ish-qoramtir tusda angoblangan. Idishning ichki qismi chapdan o‘ngga, tashqi tomoni esa o‘ngdan chapga qarab angoblangan. Idishni angoblash jarayonidagi mato izlari saqlangan. Idishning loyi yaxshi qorilgan, zich, jarangdor bo‘lib, ikki tomoni ham mohir usta tomonidan sayqallangan. Loyi zich bo‘lishiga qaramay, singan kesmasida mayda g‘ovakchalar uchraydi (1-rasm, 2). Bunday ko‘rinishdagi idishlarni Farg‘ona vodiysining Mingtepa [4] va Quyultepa yodgorliklarida uchratish mumkin [5].

Yopiq turdagi kosalar. Uchtepa-2 yodgorligining quyi qatlamlari sopollar majmuasida yopiq turdagi idishlar ham uchratildi. Ushbu majmuadagi idishlar, asosan, kosalardir. Quyida arxeologik qazuv ishlari natijasida aniqlangan kosalarning tavsifi va tahlili keltiriladi. Quyi qatlam sopollar majmuasida yopiq turdagi kosa aniqlangan bo‘lib, uning gardish diametri 14 sm, saqlangan balandligi 4 sm, devorining qalinligi 0,6 sm ni tashkil qiladi. Idish ichki tomondan to‘liq, tashqi tomondan esa lab qismidan bo‘yin qismigacha qizg‘ish-jigarrang angob bilan qoplangan. Lekin idishning saqlangan parchasidagi qorin qismining pastki tomoniga angob berilmagan. Ko‘rinishidan, idishning yuqori uchdan bir qismi angoblanib, angob pastga oqiziq tarzida tushirilgan. Idish ikki tomondan silliqlangan, loyi yaxshi qorilgan, zich, lekin loyi tarkibida ohak aralashmalari mavjud. Idishning singan qismi qirralari o‘tkir, jarangdor (1-rasm, 3). Bunday shakldagi idishlarning analogiyalari Sultonobod [6], Mingtepa [7] va Quyultepa yodgorliklari sopollar majmuasida ko‘p uchraydi [8].

Majmuadagi keyingi idishning gardish diametri 16 sm, saqlangan balandligi 2,2 sm, devorining qalinligi 0,4–0,5 sm ni tashkil qiladi. Idish ikki tomondan silliqlanib, och jigarrang angob berilgan. Angobning sifatsizligi yoki tashqi ta’sir sababli uning o‘chgan qismlari mavjud. Idish kulolchilik charxida yasalgan, loyi zich, singan qirralari o‘tkir, jarangdor. Loyi yaxshi qorilgan va zich bo‘lishiga qaramay, idishning singan kesmasida mayda g‘ovakchalar uchraydi. Idish loyi tarkibiga ohak qo‘shilgan bo‘lishi ehtimoldan yiroq emas (1-rasm, 5). Ushbu idishning analogiyalari Farg‘ona vodiysining antik davrga oid Simtepa, Sultonobod, Mingtepa, Axsikent va shu kabi yodgorliklari sopollar majmuasida uchraydi [9].

Ushbu sopollar majmuasida gardishi ichki tomonga qayrilgan yopiq turdagi idishlar mavjud bo‘lib, ulardan birining gardish diametri 18 sm, devorining qalinligi 0,5–0,7 sm ni tashkil qiladi. Idishning tashqi va ichki tomonlari och jigarrang angob bilan qoplangan, har ikki tomoni silliqlangan. Lekin tashqi ta’sir yoki boshqa sabablar tufayli ichki tomonga berilgan angob ayrim joylarda biroz o‘chib ketgan. Loyi yaxshi qorilgan, zich, singan qismining qirralari o‘tkir, jarangdor. Idish yuqori haroratda bir maromda pishirilgan. Yuqoridagi idishlar kabi ushbu idish parchasi devori kesmasining ayrim joylarida juda kichik teshikchalar mavjud. Bu holat idish loyi tarkibiga ohak yoki o‘simlik qoldig‘i (somon) aralashmasi qo‘shilib qolganidan bo‘lishi mumkin (1-rasm, 8). Ushbu idishga o‘xshash idishlar Farg‘ona vodiysining ko‘plab arxeologik yodgorliklarida keng tarqalgan. Jumladan, Eylaton, Simtepa, Axsikentning AK-1 hamda Mingtepa yodgorliklari sopollar majmuasida uchraydi [10]. Shuningdek, bu kabi idish Kuyultepa yodgorligining B-1 sopollar majmuasida ham mavjud [11].

Yodgorlikda uchratilgan antik davrga tegishli keyingi sopol bo‘lagining gardishi ichkariga qayrilgan bo‘lib, yopiq turdagi idishlar sirasiga kiradi. Ushbu idish ham kulolchilik charxida yasalgan. Idishga tashqi tomondan jigarrang tusdagi angob berilgan. Angob berish jarayonida idishning qayrilgan qismi angob bilan to‘liq qoplanmaganligini va mato izlarini

kuzatish mumkin. Ichki qismiga qizg‘ish tusdagi angob berilgan bo‘lib, ichki qayrilish qismiga aylana bo‘ylab ikkita parallel chiziq bilan bezak berilgan. Idishning gardish diametri 18 sm, saqlangan balandligi 4 sm, gardish devorining qalinligi 0,8 sm, gardishning pastki qismi devorining qalinligi esa 0,6 sm ni tashkil qiladi. Idishning loyi yaxshi qorilgan, zich, jarangdor, singan qismlarining qirralari o‘tkir. Ushbu idishning singan kesmasida ham mayda g‘ovakchalar kuzatiladi (1-rasm, 9). Idishning ichki qismida, lab qismidan pastda, qorin qismiga o‘tish yelkasida gorizontal ravishda bo‘rtma mavjud. Bunday ko‘rinishdagi idishlar vodiyning Eylaton, Sultonobod, Simtepa, Mingtepa, Kuyuktepa va shu kabi yodgorliklari sopollar majmuasida uchraydi [12].

Ushbu sopollar majmuasida uchraydigan yopiq turdagi qolgan kosalarning gardish diametri, asosan, 16–26 sm atrofida bo‘lib, idishlar devorining qalinligi 0,4–0,8 sm oralig‘ida. Barcha idishlar kulolchilik charxida ishlangan, ichki va tashqi tomonlari och jigarrang, to‘q jigarrang, och qizg‘ish va to‘q qizg‘ish angob bilan qoplangan. Idishlarning loyi yaxshi qorilgan, zich, singan qirralari o‘tkir, jarangdor. Fikrimizcha, idishlar loyi tarkibida o‘simlik aralashmasi mavjud (1-rasm, 4, 6, 7, 10, 11, 12, 13, 14, 15). Sopollar majmuasidagi bu turdagi idishlarning analogiyalari Simtepa, Eylaton, Sultonobod, Mingtepa, Axsikent va Kuyultepa yodgorligining B-1 sopollar majmuasida keng ko‘lamda uchraydi [13]. Shuningdek, bu kabi idishlar Sarvontepa [14], Kuyuktepa yodgorligining Kuyuk-1 sopollar majmuasida [15], Marg‘ilonsoy vohasidagi Qizlartepa [16], bundan tashqari, Karkidon guruhi yodgorliklaridan 5a manzilgohi [17] sopollar majmuasida uchratiladi.

XULOSA

Uchtepa-2 arxeologik yodgorligidan olingan sopol buyumlar majmuasining stratigrafik, tipologik va qiyosiy tahlili ushbu manzilgohning Farg‘ona vodiysi antik davr madaniy taraqqiyotida muhim o‘rin egallaganligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yodgorlikning quyi qatlamlari miloddan avvalgi III–II asrlarga oid bo‘lib, aynan shu davrda hududning faol o‘zlashtirilganligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Quyi qatlamlardan aniqlangan sopol idishlarning kulolchilik charxida yuqori sifatda ishlanganligi, angob berish texnologiyasining mukammalligi hamda shakl va bezaklarining xilma-xilligi hududda rivojlangan kulolchilik an’analari mavjud bo‘lganligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, ochiq va yopiq turdagi idishlarning tipologik jihatdan boyligi hamda ularning ishlab chiqarish texnologiyasidagi umumiyliklar Farg‘ona vodiysining boshqa yodgorliklari – Mingtepa, Sultonobod, Simtepa, Axsikent va Kuyultepa materiallari bilan yaqin aloqadorlikni ko‘rsatadi. Bu esa hududlar o‘rtasida nafaqat madaniy, balki iqtisodiy va texnologik aloqalar mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi.

Shuningdek, sopol buyumlarning ayrim xususiyatlari, jumladan, angob sifati, devor qalinligi va bezak elementlaridagi farqlar vaqt o‘tishi bilan kulolchilik an’analarida ma’lum darajada transformatsiya jarayonlari yuz berganligini ko‘rsatadi. Bu o‘zgarishlar antik davr oxirlarida tashqi etnomadaniy ta’sirlar, xususan, ko‘chmanchi chorvador guruhlarning kirib kelishi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, Uchtepa-2 yodgorligi materiallari asosida olib borilgan mazkur tadqiqot Farg‘ona vodiysining antik davr kulolchilik maktabi, uning rivojlanish bosqichlari hamda hududiy xususiyatlarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ushbu natijalar kelgusida mintaqadagi boshqa arxeologik yodgorliklarni o‘rganish, ularning xronologiyasi va madaniy mansubligini yanada aniqlashtirish uchun mustahkam ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Istaxriy. Kitab al-Masalik val-mamalik: Yo‘llar va o‘lkalar kitobi. Xuroson va Movarounnahr / tadqiqot, arab tilidan tarjima, izoh va ko‘rsatkichlar muallifi R. T. Xudayberganov; mas’ul muharrir D. Yu. Yusupova. – Toshkent: Fan, 2019. – B. 181–182. – URL: https://www.scribd.com/document/988018172/Istaxriy-2. PDF
2. Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, **2015**. – B. 261. – URL: https://akbt.urdu.uz/uz/books/424.
3. Кудратов С. С. Поселения левобережья р. Нарын в Фергане (III в. до н. э. – V в. н. э.): дис. … канд. ист. наук. – Санкт-Петербург, 1992. – С. 207, 225, 230. – Рис. 25.5; 43.9–10; 48.1. – URL (avtoreferat matni): https://cheloveknauka.com/poseleniya-levoberezhya-r-naryn-v-fergane-iii-v-do-n-e-v-v-n-ne. V в. н.нэ.)
4. Матбабаев Б. Х., Чен Линг, Исамиддинов М. Х., Алохунов А., Абдулгазиева Б., Илясова С., Хошимов Х. Археологические работы на городище Мингтепа // Археологические исследования в Узбекистане в 2012 году. – Самарканд, 2013. – Вып. 9. – С. 95. – Рис. 3.1. – URL: https://www.academia.edu/87827500. academia.edu
5. Исамиддинов М. Х., Матбабаев Б. Х., Кучкаров Т. Предварительное изучение керамики поселения Куюлтепа Северной Ферганы // История материальной культуры Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1983. – Вып. 18. – С. 92. – Рис. 1.А-2.2. – URL (bibliografik tasdiq): https://slib.uz/ru/article/19138. slib.uz
6. Абдулгазиева Б. Исследование поселения Султанабад // Средняя Азия: археология, история, культура: материалы международной конференции, посвящённой 50-летию научной деятельности Г. В. Шишкиной. – Москва: Государственный музей Востока, 2000. – С. 14. – Рис. 1.11. – URL (to‘plam): https://marakandiy.uz/ru/book/srednyaya-aziya-arheologiya-istoriya-kultura-523. marakandiy.uz
7. Матбабаев Б. Х. и др. Археологические работы на городище Мингтепа // Археологические исследования в Узбекистане в 2012 году. – Самарканд, 2013. – Вып. 9. – С. 95. – Рис. 3.6. – URL: https://www.academia.edu/87827500.
8. Исамиддинов М. Х., Матбабаев Б. Х., Кучкаров Т. Предварительное изучение керамики поселения Куюлтепа Северной Ферганы // История материальной культуры Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1983. – Вып. 18. – С. 92. – Рис. 1.Б-1.1. – URL (bibliografik tasdiq): https://slib.uz/ru/article/19138.
9. Горбунова Н. Г., Козенкова В. И. Сым-тепе – поселение в Фергане // Археологический сборник Государственного Эрмитажа. – Ленинград: Аврора, 1974. – Вып. 16. – С. 99. – Рис. 6.1. – URL: https://www.academia.edu/121864690. academia.edu

10. Абдулгазиева Б. Исследование поселения Султанабад // Средняя Азия: археология, история, культура. – Москва: Государственный музей Востока, 2000. – С. 14. – Рис. 1.15. – URL (to‘plam): https://marakandiy.uz/ru/book/srednyaya-aziya-arheologiya-istoriya-kultura-523.
11. Матбабаев Б. Х. и др. Археологические работы на городище Мингтепа // Археологические исследования в Узбекистане в 2012 году. – Самарканд, 2013. – Вып. 9. – С. 95. – Рис. 3.4. – URL: https://www.academia.edu/87827500.
12. Анарбаев А. А. Ахсикет – столица древней Ферганы. – Ташкент: Tafakkur, 2013. – С. 371. – Табл. I.3. – URL https://archaeology.uz/storage/images/posts/Ilmiy%20xaoliyat/Ipak%20yuli%20bulimi/Anarbaev.pdf. archaeology.uz
13. Кудратов С. С. Поселения левобережья р. Нарын в Фергане (III в. до н. э. – V в. н. э.): дис. … канд. ист. наук. – Санкт-Петербург, 1992. – С. 223. – Рис. 41.5. – URL (avtoreferat matni): https://cheloveknauka.com/poseleniya-levoberezhya-r-naryn-v-fergane-iii-v-do-n-e-v-v-n-ne.
14. Горбунова Н. Г., Козенкова В. И. Сым-тепе – поселение в Фергане // Археологический сборник Государственного Эрмитажа. – Ленинград: Аврора, 1974. – Вып. 16. – С. 99. – Рис. 6.1. – URL: https://www.academia.edu/121864690.
15. Анарбаев А. А. Ахсикет – столица древней Ферганы. – Ташкент: Tafakkur, 2013. – С. 371. – Табл. I.3. – URL (bibliografik tasdiq): https://www.uzbekembassy.in/information-on-ahsikent/. uzbekembassy
16. Матбабаев Б. Х. и др. Археологические работы на городище Мингтепа // Археологические исследования в Узбекистане в 2012 году. – Самарканд, 2013. – Вып. 9. – С. 95. – Рис. 3.3, 3.7. – URL: https://www.academia.edu/87827500.
17. Исамиддинов М. Х., Матбабаев Б. Х., Кучкаров Т. Предварительное изучение керамики поселения Куюлтепа Северной Ферганы // История материальной культуры Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1983. – Вып. 18. – С. 92. – Рис. 1.Б-1.1. – URL (bibliografik tasdiq): https://slib.uz/ru/article/19138.
18. Кудратов С. С. Поселения левобережья р. Нарын в Фергане (III в. до н. э. – V в. н. э.): дис. … канд. ист. наук. – Санкт-Петербург, 1992. – С. 229–230. – Рис. 47.1; 48.8, 48.11. – URL (avtoreferat matni): https://cheloveknauka.com/poseleniya-levoberezhya-r-naryn-v-fergane-iii-v-do-n-e-v-v-n-ne.
19. Абдулгазиева Б. Исследование поселения Султанабад // Средняя Азия: археология, история, культура. – Москва: Государственный музей Востока, 2000. – С. 14. – Рис. 1.20. – URL (to‘plam): https://marakandiy.uz/ru/book/srednyaya-aziya-arheologiya-istoriya-kultura-523.
20. Горбунова Н. Г., Козенкова В. И. Сым-тепе – поселение в Фергане // Археологический сборник Государственного Эрмитажа. – Ленинград: Аврора, 1974. – Вып. 16. – С. 101. – Рис. 8.8. – URL: https://www.academia.edu/121864690.
21. Матбабаев Б. Х. и др. Археологические работы на городище Мингтепа // Археологические исследования в Узбекистане в 2012 году. – Самарканд, 2013. – Вып. 9. – С. 95. – Рис. 3.6. – URL: https://www.academia.edu/87827500.
22. Кудратов С. С. Поселения левобережья р. Нарын в Фергане (III в. до н. э. – V в. н. э.): дис. … канд. ист. наук. – Санкт-Петербург, 1992. – С. 190. – Рис. 8.1. – URL (avtoreferat matni): https://cheloveknauka.com/poseleniya-levoberezhya-r-naryn-v-fergane-iii-v-do-n-e-v-v-n-ne.
23. Горбунова Н. Г., Козенкова В. И. Сым-тепе – поселение в Фергане // Археологический сборник Государственного Эрмитажа. – Ленинград: Аврора, 1974. – Вып. 16. – С. 99. – Рис. 6.1. – URL: https://www.academia.edu/121864690.
24. Абдулгазиева Б. Исследование поселения Султанабад // Средняя Азия: археология, история, культура. – Москва: Государственный музей Востока, 2000. – С. 14. – Рис. 1.15. – URL (to‘plam): https://marakandiy.uz/ru/book/srednyaya-aziya-arheologiya-istoriya-kultura-523.
25. Анарбаев А. А. Ахсикет – столица древней Ферганы. – Ташкент: Tafakkur, 2013. – С. 371. – Табл. I.3. – URL (bibliografik tasdiq): https://www.uzbekembassy.in/information-on-ahsikent/.
26. Матбабаев Б. Х. и др. Археологические работы на городище Мингтепа // Археологические исследования в Узбекистане в 2012 году. – Самарканд, 2013. – Вып. 9. – С. 95. – Рис. 3.3, 3.7. – URL: https://www.academia.edu/87827500.
27. Матбабаев Б. Х., Машрабов З. З. Древний и средневековый Андижан: историко-археологическое исследование. – Ташкент: Sharq, 2011. – С. 193. – Рис. 25.16. – URL: https://lib.tiet.uz/file/20220817055727.pdf. lib.tiet.uz
28. Кудратов С. С. Поселения левобережья р. Нарын в Фергане (III в. до н. э. – V в. н. э.): дис. … канд. ист. наук. – Санкт-Петербург, 1992. – С. 229–230. – Рис. 47.1; 48.8, 48.11. – URL (avtoreferat matni): https://cheloveknauka.com/poseleniya-levoberezhya-r-naryn-v-fergane-iii-v-do-n-e-v-v-n-ne.
29. Анарбаев А. А., Максудов Ф. А. Древний Маргилан: из истории земледельческой и городской культуры Ферганы. – Ташкент: Фан, 2007. – С. 57. – Рис. 18.6. – URL: https://marakandiy.uz/ru/book/drevnij-margilan-iz-istorii-zemledelcheskoj-i-gorodskoj-kulturyi-ferganyi-2124. marakandiy.uz
30. Горбунова Н. Г. Памятники Каркидонской группы в Южной Фергане // Археологический сборник Государственного Эрмитажа. – Ленинград: Искусство, 1985. – Вып. 26. – С. 60. – URL (maqolaga bibliografik havola): https://slib.uz/ru/article/20024. slib.uz